
Dunaliella salina - biologik faol birikmalar manbai

Oxirgi 10-15 yillarda Orol bo'yi ko'pgina suv havzalarida tuzlarning kontsentratsiyasi 100 g/l ni tashkil etmoqda va ularda Dunaliella salina suvo'tlari paydo bo'lmoqda. Ushbu Dunaliella suvo'tlari karotin (biomassaning 10%), lipidlar (biomassaning 10%) va glitserin (biomassaning 30%) tutishi sababli Avstraliya, AQSh, Hindiston, Xitoy, Isroil va boshqa ko'pgina davlatlarda o'stirilmoqda.

O'zR FA Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan "O'zbekiston sharoitlarida suvo'tlarni o'stirish texnologiyalarini yaratish va uning asosida biologik faol moddalar olish" loyihasi doirasida Orol bo'yi suv havzalaridan Dunaliella salina AR-1 shtammi ajratib olindi. Ushbu shtammning o'ta to'yingan sho'rlangan sharoitlarda faol funksiyalanishi ko'rsatildi. Ilgari tavsiflangan Dunaliella salina shtammlari kabi, ushbu kultura biologik faol moddalarning (karotinoidlar, ksantofil, vitaminlar, turli omega-3 va 9 yog' kislotalari) deyarli barchasini o'zida tutadi va rak kasalligiga qarshi, antidiabetik, antineyrodegenerativ, antimikrob xususiyatlariga egadir.



Dunalielladan tijoratbop mahsulotlar, ya'ni oziq-ovqat sanoati uchun, yem ishlab chiqarishda biologik faol qo'shimchalar (BFQ) olish uchun miniplantatsiya qurish va Orol bo'yi sharoitlarida Dunaliella salina AR-1 sanoat darajasida o'stirish texnologiyasini takomillashtirish zarurdir.